

## ISHLAB CHIQARISHDA MAXSULOT TANNARXI XARAJATLARINI KAMAYTIRISH ORQALI KORXONADA SAMARADORLIKNI OSHIRISH.

I.f.n.dotsent B.N. Mo`yдинов  
Mo`yдинов Ozodbek Olimjonovich  
magistrant

**Annotatsiya:** Maqolada ishlab chiqarish korxonalarida maxsulot tannarxi xarajatlarining tasnifini tahlil qilib, maxsulot tannarxi xarajatlarini kamaytirish orqali korxonada samaradorlikni oshirish yo`llari muhokama qilinadi.

**Kalit so`zlar:** Korxona, ishlab chiqarish, xarajat, tannarx, samaradorlik, tayyor mahsulot, hom-ashyo, xodimlar, ish haqi, yarim tayyor maxsulot, nomenklatura, transport.

**Аннотация:** В статье, классифицирующей состав себестоимости продукции в производстве, рассматриваются способы управления эффективностью путем установления максимальной безопасности затрат.

**Ключевые слова:** Предприятие, производство, себестоимость, стоимость, эффективность, готовая продукция, сырье, рабочие, заработка плата, полуфабрикат, номенклатура, транспорт.

**Abstract:** The article analyzes the classification of product cost expenses in production enterprises and discusses ways to increase efficiency in the enterprise by reducing product cost expenses.

**Keywords:** enterprise, production, cost, product cost, efficiency, finished product, raw materials, employees, wages, semi-finished product, nomenclature, transport..

**Kirish.** Ishlab chiqarish korxonalarida samaradorlikni oshirish haqida iqtisodiy adabiyotlarda yoritilgan. Korxonalar bozor talabini o`rgangan holda tuzilgan shartnomalarga, assortimentga, son va sifatiga e`tibor bergan holda ishlab chiqarishda mahsulot hajmini ko`paytirish, ularning assortimentini kengaytirish va sifatini oshirishga e`tibor berib mahsulot ishlab chiqaradilar. Korxonalar faoliyatida maxsulot tannarxi xarajatlarini kamaytirish orqali korxonada samaradorlikni oshirish boyicha ham bir qator fikrlar olg`a surilgan.


**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Rossiyalik iqtisodchi olimlardan D.A.Endovitskiy, N.I. Akromova, Sergeyev I.V. V.Y. Gorfinkelya, V.A.Shvandara. V.G.Gruzinov, A.V.Zonova, R.G.Kaspina, N.A.Ishkova, V.R.Zaxarin, E.P.Konstantinova, xorijiy iqtisodchilardan Colin Drury. Carl S. Warren, James M. Reeve, Jonathan E. Duchac. Barry Elliot, Jamie Elliot. Kuter M.I. kabi olimlar ishlab

chiqarish korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarining hisobi bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan. Zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida Ishlab chiqarish korxonalarida samaradorlikni oshirish zarurligini atroficha o'rganish muhim ahamiyatga ega. Ozbekiston olimlari ham o'rganislari, nazariy kitoblari bilan xarajatlar tarkibi, shakllanishi haqida fikr yurishgan jumladan B.K. G'oyibnazarov, A.A. Karimov, J.E. Kurbanbayev, S.A. Jumanazarov, N. Jo`raev, F. Abduvaxidov, D. Sotivoldieva, B.K. g'oyibnazarov, N.I. Akromova kabilarni faoliyatida ham ko'rib chiqiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada induktsiya va deduktsiya, tizimli va mantiqiy tahlil, qiyosiy tahlil usullaridan samarali foydalanishga harakat qilingan.

**Tahlil va natijalar.** Korxonalar ishlab chiqarish jarayonida moddiy va pul xarajatlarini amalga oshiradilar. Korxonaning umumiy xarajatlarining ichida katta hissasi ishlab chiqarish xarajatlariga to'g'ri keladi.

**Xarajatlarning maqsadi** - xarajatlari alohida oichanadigan har qanday faoliyatdir. Mahsulot, sex, savdo hududi yoki aniqlash mumkin bo'lgan har qanday faoliyat bunga misol bo'la oladi<sup>1</sup>.



1-rasm. Ishlab chiqarish xarajatlari jarayoni.

1-rasm. Ishlab chiqarish xarajatlarining hisobi, korxonaga mahsulotning tayyor holati ishlab chiqarish qanchaga tushishini ko'rsatadi, ya'ni mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini tashkil qiladi.

Korxonalar, shuningdek, mahsulotni sotish bo'yicha xarajatlarni, ya'ni ishlab chiqarishdan tashqari yoki tijorat (tashish, qadoqlash, saqlash, reklama qilish va hokazo) xarajatlarini ham amalga oshiradilar. Mahsulot (ish, xizmat) tannarxini tashkil qiluvchi xarajatlar iqtisodiy mazmuniga ko'ra, quyidagi elementlarga asosan guruhlarga taqsimlanadi:

- \* moddiy xarajatlar;
- \* asosiy fondlar amortizatsiyasi;

<sup>1</sup> Colin Drury. Management and Cost Accounting, eighth edition. 2012. p.23-24

- \* mehnatga haq to‘lash bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar;
- \* ijtimoiy ehtiyojlarga mo‘ljallangan xarajatlar;
- \* boshqa xarajatlar.

Moddiy xarajatlar ishlab chiqarish xarajatlarining eng katta qismi bo‘lib, umumiylar xarajatlarning 60 - 80 foizini tashkil qilishi mumkin. Moddiy xarajatlar o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi<sup>2</sup>:

- xom ashyo va materiallar xarajatlari;
- texnologik maqsadlar va xo‘jalik ehtiyojlari uchun sarflanuvchi yoqilg‘i va energiya;
- xarid qilinuvchi butlovchi qismlar va yarim tayyor mahsulotlar;
- sotib olingan qadoqlash va o‘rov materiallari xarajatlari;
- mashina va asbob-uskunalarni ta’mirlash uchun ehtirot qismlar;
- boshqa korxona va tashkilotlar tomonidan ko‘rsatiladigan ishlab chiqarish xizmatlari;
- xizmat davri bir yilgacha bo‘lgan kichik qiymatli va tez eskiruvchi predmetlarning eskirishi yoki har bir instrument, inventar, laborotoriya uskunalari va maxsus kiyim-bosh uchun eng kam oylik ish haqining 50 baravar miqdorigacha qiymati;
- tabiiy xom ashydandan foydalanish bilan bog‘liq soliq, yig‘im va boshqa to‘lovlar;
- ishlab chiqarishda bekor turib qolish va sifatsizlik (brak) tufayli yuzaga keladigan yo‘qotishlar;
- tabiiy yo‘qotishlar bilan bog‘liq bo‘lgan yoki aybdor shaxslar mavjud bo‘lmagan holda yuzaga keladigan yo‘qotishlar.

Amortizatsiya ajratmalari miqdoriga teng bo‘lgan asosiy ishlab chiqarish fondlarining eskirishi xarajatlarning yirik elementlaridan biri hisoblanadi. Bular qatoriga asosiy fondlarning tezlashgan amortizatsiyasi va uning indeksatsiyasini kiritish mumkin.

Mehnatga haq to‘lash bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar korxonaning asosiy ishlab chiqarishdagi ishchilari mehnatiga haq to‘lashga sarflanadigan xarajatlar bo‘lib, ishlab chiqarishdagi yuqori natijalar uchun mukofotlar, rag‘batlantiruvchi va kompensatsiya to‘lovleri, jumladan, qonunchilikda belgilangan tartibda hisob chegarasida narxlarning o‘sishi va indeksatsiya uchun to‘lovlar, shuningdek, korxona xodimlari shtat royxatida bo‘lmagan, lekin asosiy ishlab chiqarishda mehnatidan foydalanilgan ishchilar uchun to‘lanuvchi haqni o‘z ichiga oladi.

### **Mazkur xarajatlar elementlari qatoriga quyidagilar kiritilgan:**

<sup>2</sup> B.K.G‘oyibnazarov, N.I.Akromova. "Korxona iqtisodiyoti" Toshkent-2010. (Махмудов Э.Х., Зайнутдинов Ш.Н. Ценообразование и ценовая политика предприятия // Частная собственность. - 2005. - 7 сентябрь.)

- ❖ amalda bajarilgan ish uchun tarif stavkalari, lavozim maoshlari va shu kabilar asosida to‘lanuvchi ish haqi;
- ❖ xodimlarga natural to‘lov shaklida beriluvchi mahsulotlar qiymati;
- ❖ ishlab chiqarishdagi yuqori natijalar uchun beriluvchi mukofot va boshqa to‘lovlari;
- ❖ qonunchilikka asosan ba’zi tarmoqlardagi xodimlarga bepul beriluvchi kiyimkechak, oziq-ovqat, uy-joy, kommunal xizmat va hokazolar qiymati;
- ❖ har yillik mehnat va o‘quv ta’tili uchun amalga oshiriluvchi to‘lovlari;
- ❖ korxonani qayta tashkil qilish, shtatlar qisqarishi tufayli ishdan bo‘shatilgan xodimlarga to‘lanuvchi mablag‘lar.

Hisobotda tayyor mahsulotlarga boshqa baholar qo‘llanilsa ham farq so‘mmasi va foizi shu tartibda hisoblanadi.

Tayyor mahsulot — korxonalarda ishlab chiqarish jarayonining pirovard natijasidir<sup>3</sup>.

Tayyor mahsulotlar harakati hisobini to‘g‘ri tashkil etishda ularning nomenklaturalarini ishlab chiqish katta ahamiyatga ega.

Mahsulotlar nomenklaturasi – ushbu korxona tomonidan ishlab chiqariladigan buyumlar turlari nomlarining ro‘yxatidir. Mahsulotlar nomenklaturasini to‘zishda bir buyumni ikkinchisidan ajratib olish imkoniyatini beradigan tayyor mahsulotlarni ma’lum belgilariga qarab qilingan tasnif asos bo‘ladi. Nomenklatura raqami turli miqdordagi raqamlar bilan belgilanishi mumkin. Korxona nomenklaturalaridan quyidagi xizmatlarda<sup>4</sup>:

- ✓ dispecherlar – mahsulot ishlab chiqarish grafigining bajarilishini nazorat qilish uchun;
- ✓ sexlar – ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar assortimentini nazorat qilish uchun va tayyor mahsulotlarni omborga topshirishda nakladnoylar yozish uchun;
- ✓ marketing bo‘limi – mahsulot jo‘natish shartnomasining bajarish imkoniyati ustidan nazorat qilish uchun;
- ✓ buxgalteriya – analitik hisob, svodkalar va hisobotlar to‘zish uchun foydalanishi mumkin.

Shuning uchun korxonalarning buxgalteriya hisobini tashkil qilish tizimida tayyor mahsulotlar ularni yuklash va sotish hisobi alohida o‘rin tutib, uning vazifalari quyidagilardan iborat:

- tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish, ularning zaxiralari holati hamda omborda saqlanishi, bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlar ustidan uzluksiz nazorat qilish;

<sup>3</sup> Financial and managerial accounting , 12e, Carl S. Warren, James M. Reeve, Jonathan E. Duchac, 9 28-page

<sup>4</sup> Abdusalomova N.B., Temirov F.T., “Moliyaviy hisob”. Tosh.D.I.U, Toshkent –2021 y. 121-b.

- yuklangan va jo‘natilgan mahsulot (ish, xizmat) larni o‘z vaqtida va to‘g‘ri hujjatlashtirish, xaridorlar bilan olib boriladigan hisob— kitoblarni aniq tashkil etish;
- sotilgan mahsulotlarning hajmi va assortimenti bo‘yicha mol jo‘natish shartnoma rejasining bajarilishi ustidan nazorat qilish;
- sotilgan mahsulot uchun olinadigan mablag‘lar so‘mmasini, mahsulot ishlab chiqarish uchun ketgan haqiqiy xarajatlarni, foyda so‘mmasini o‘z vaqtida va aniq hisoblab chiqish.

Bu vazifalarning bajarilishi korxonaning bir tekisda ishlashi, sotish hamda ombor xo‘jaligini to‘g‘ri tashkil qilish, xo‘jalik operatsiyalarini o‘z vaqtida va to‘g‘ri hujjatlashtirishga bog‘liq.

Korxonada samaradorlikni oshirishning asosiy yo‘llari. Har bir korxonada samaradorlikni oshirish bo‘yicha rejali chora-tadbirlar ko‘zda tutilishi kerak.

Umuman olganda, bunday chora-tadbirlar quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

- ↔ ishlab chiqarilayotgan mahsulot miqdorini oshirish;
- ↔ ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirish;
- ↔ ortiqcha asbob-uskunalar yoki boshqa mulkni sotib yuborish yoki ijaraga berish;
- ↔ moddiy resurslar, ishlab chiqarish quvvatlari va maydonlari, ishchi kuchi va ish vaqtidan unumliroq foydalanish hisobiga mahsulot tannarxini pasaytirish;
- ↔ ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish;
- ↔ mahsulot bozorini kengaytirish va hokazolar;
- ↔ sifatli va arzon narxda yarim tayyor maxsulot jalg qilish;
- ↔ hom-ashyo olib kelishda transport xarajatini kamaytirish yoki bartaraf qilish;
- ↔ tayyor mahsulot yetkazib berishda transport xarajatini kamaytirish yoki bartaraf qilish;
- ↔ maxsulot tannarxini kamaytiradigan zamonaviy innovatsion texnologiya jalg qilish.

Tayyor mahsulotni buxgalteriya hisobida haqiqiy tannarxi bo‘yicha aks ettirish oson bo‘lishiga qaramay tashkilotlar mazkur usuldan kam foydalanadilar. Tayyorlangan mahsulotning haqiqiy tannarxi mahsulot ishlab chiqarishga doir barcha xarajatlar - to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar ham, bilvosita xarajatlar ham aniqlanadigan hisobot oyi oxiridagina shakllanishi mumkin.

Foyda korxona faoliyatining muhim iqtisodiy ko‘rsatkichi bo‘lsada, uning samaradorligini to‘la tavsiflab bermaydi. Korxona faoliyati samaradorligini aniqlash uchun natijalarni (foydani) xarajatlar yoki bu natijalarga erishish uchun sarflangan resurslar bilan solishtirish lozim.

## Xulosa va takliflar

Ishlab chiqarish korxonalarida samaradorlikni oshirish uchun mahsulotni buxgalteriya hisobida haqiqiy tannarxi bo'yicha mahsulot ishlab chiqarishga doir barcha xarajatlarni tahlil qilish orqali ishlab chiqarish tannarxini kamaytirishni bo'yicha rejali chora-tadbirlar o'rganildi. Ushbu yuqoridaagi rejali chora-tadbirlar bajarilishi korxonaning bir tekisda ishlashi, sotish hamda ombor xo'jaligini to'g'ri tashkil qilish, xo'jalik operatsiyalarini o'z vaqtida va to'g'ri bajarilishi bilan biz ishlab chiqarish tannarxining hisobini ozida foydaga olib boradigan natijaga erishishimiz mumkin.

### Foydalanimgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. /Darslik. N.Toshmamatov umumiy tahriri ostida, - Toshkent. "O'qituvchi". 2019.
2. Moliyaviy hisob. O"quv qo'llanma. Abdusalomova N.B, Temirov F.T. – Toshkent.: "Iqtisodiyot", 2021.
3. Korxona iqtisodiyoti. / O"quv qo'llanma B.K. G'oyibnazarov, N.I. Akromova. – Toshkent.: "Iqtisodiyot", 2010.
4. Abdukarimov I.T. va boshqalar Korxona iqtisodiy salohiyati tahlili. T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2003.
5. Metodicheskiye rekomendatsii po otsenke effektivnosti investitsionix proyektor i ix otboru dlya finansirovaniya. Izdaniye ofitsialnoye - M.: OAO «NPO», izdatelstvo «Ekonomika», 2000
6. V. G. Gruzinov. Ekonomika predpriyatiya. Uchebnik 2-ye izd. M.: «Yuniti Dana» 2003.
7. Ekonomika predpriyatiya. 3 -ye izd., pererab. i dop. Uchebnik dlya vuzov / Pod red. prof. V.Y. Gorfinkelya, prof. V.A.Shvandara M.: YUNTI-DANA 2004.
8. Sergeyev I.V. Ekonomika predpriyatiya. 2-ye izd. perab. i dop. Uchebnoye posobiye M.: Finanso' i statistika 2004.